



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti




№3(2)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



*Elektron nashr. 170 sahifa,
16-mart, 2026-yil.*

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis instituti dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **№C-5669363** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Katta guruh tarbiyalanuvchilarida kasb haqidagi dastlabki tasavvurlarni shakllantirish metodikasini innovatsion ekotizim sharoitida takomillashtirish	18
Uralova Fotima Baxtiyor qizi	
Malakali sportchilarning kommunikativ qobiliyatlarini takomillashtirishda sotsiologik yondashuv (gandbolchilar misolida).....	23
G. A. Valiyeva	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida motor alaliyali bolalarni ruhiy va nutqiy rivojlantirish usullari	27
Suyunova Surayyo Ulash qizi	
Sog'lom bola ekotizimining asoslari: ovqatlanish, immunitet va rivojlanish	31
Israilova Xusnida Adilovna	
Mobil ilovalar yordamida mustaqil o'qishni rivojlantirish	37
Raximova Feruza Najmiddinovna	
Biologiya darslarida muammoli ta'lim texnologiyasini qo'llash orqali mantiqiy fikrlashni rivojlantirish	42
Dauekeeva Gulistan Orinbaevna	
Talabalarga ingliz tilidagi matnlarni kommunikativ metod yordamida o'qish texnikasini takomillashtirish usullari	46
Mo'minova Mahliyo Axrorjonovna	
Velosiped haydashning afzalliklari.....	49
Raxmonova Go'zal Bobir qizi	
Компетентностный подход как стратегическая основа модернизации образования и его реализация в преподавании русского языка как иностранного в Узбекистане	54
Мирзакбарова Севда Бахиддиновна	
Umumta'lim maktablarida texnologiya fani mashg'ulotlarini tashkil etishning zamonaviy yondashuvlari va metodlari.....	58
Ziyamova Gulbaxor Tulabayevna	
Типы аббревиации в русском и узбекском языках: сравнительно-типологический анализ.....	62
Рахмонова Бахтигул Пайзилловна	
Maktabgacha ta'limda nutqni rivojlantirish jarayonida didaktik o'yinlardan foydalanish metodikasi	65
Abidjonova Mushtariybonu Qobiljon qizi	
Tarbiyaviy tadbirlarni samarali tashkil etishda maktabgacha ta'lim tashkiloti va ota-onalarning o'zaro hamkorlik masalalari.....	71
Sanayeva Surayyo Bobonazarovna, Jabborova Shaxina G'affor qizi	
Qadriyatli yondashuv asosida talabalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash mexanizmlarini takomillashtirish ..	76
G'aybullayev Quvonchbek G'olibovich	
Maktab o'quvchilarida stressga barqarorlik namoyon bo'lishining psixologik tahlili	83
Ismoilova N. Z.	
Yoshlar ma'naviyatini shakllantirishda milliy qadriyatlarning o'rni.....	87
Karshiyev Jaxongir Abdirayimovich	
Funksional savodxonlikni rivojlantirishda o'qish savodxonligining o'rni va ahamiyati	91
Xatamova Munisa Mamadulla qizi	
Transformatsiyalash tizimi asosida o'quvchilarning loyihalash kompetensiyalarini rivojlantirish samaradorligi	95
Jurayeva Zulayxo Islomovna	
Zamonaviy boshqaruv nazariyalarida rahbar muloqoti (transformatsion, kommunikativ va ishtirokchi boshqaruv yondashuvlari asosida).....	102
Islamova Difuza Dilshodovna	



Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida pedagogik kompetentlikni tabaqalashgan yondashuv asosida rivojlantirish mazmuni	107
Begmatova Nasiba Mengnarovna	
Bo'lajak maxsus pedagoglarni inklyuziv ta'limda subyektlar faoliyatini o'rgatish metodikasi	112
Dilshodov Abrorjon Dilshodjon o'g'li	
Pre-Reading Activities to Enhance Foreign Language Reading Comprehension: Reading "The Adventures of Tom Sawyer" in 10–11 Grades	118
Djumaniyazova Zulfiya Kaliyevna	
Nutq aktlarini o'rgatishda autentik materiallardan foydalanishning metodik imkoniyatlari (filologik yo'nalish talabalari misolida)	122
Fayzulloeva Chevar G'ayrat qizi	
Yangi O'zbekistonda talaba-yoshlarni milliy yuksaltirishda jadid-marifatparvarlari ilgari surgan g'oyalarning o'rni va roli	125
Mamadaliyev Abduvoxid Maxsitaliyevich	
Gimnastikaning O'zbekistonga kirib kelish va rivojlanish tarixi	128
N. Q. Mamasidova	
Uglevodorodlar tarkibini aniqlashda massa ulushiga asoslangan reflektiv yondashuv (7-9-sinflar misolida)	131
Maxamadiyev Sharofiddin Jumaboyevich, Smanova Zulayxo Asanaliyevna	
Screencasting materiallarini yaratish va ularni o'quv jarayonida qo'llash	134
Maxmudova Dilfuza Meliyevna, Ergashov Niyozxon Ilyozxon o'g'li	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda so'z shakllanishini psixolingvistik asoslari	137
Moxirabonu G'aniyeva Adxam qizi	
Maktabgacha ta'limdagi muammolar va yechimlar: o'zbekiston respublikasi tajribasi	140
N. Sh. Miryusupova	
Interaktiv kartografik resurslar va ularning ta'lim jarayonida qo'llanilishining didaktik, kognitiv hamda metodik asoslari	143
Olimova Aziza Abdullayevna	
Mentorlik tizimining tarixiy ildizlari va rivojlanish bosqichlari	147
Oxunova Dilnoza Qaxxorjonovna, Abdumannonova Durdonaxon Shuxratjon qizi	
Talabalarning psixologik holati va stress omillarining prokrastinatsiyaga ta'siri hamda mustaqil ta'lim faoliyatini qo'llab-quvvatlash usullari	150
Razakov Farxod Kuvondikovich, Rajabov Hikmat Toshevich	
Talabalarni stulda o'tirgan qiyofachi portreti ranglavhasini ishlashga o'rgatish metodikasi	154
Sadatov Chori Xolmuradovich	
Organik kimyo fanini o'qitishda teskari ta'lim va texnologiyalarning ahamiyati	158
Umrbekova Maftuna Ulug'bek qizi, Babanazarova Ayzada Omirbaevna, Abdulkakimova Gulziyba Ziyatdinovna	
Duduqlanishni bartaraf etishda kompleks metodlarini qo'llashning samaradorligi	162
Xasanova Barnoxon Abdusattor qizi	
Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik kompetentligini takomillashtirish	165
Xolbozorova Nasiba Xolbozar qizi	
Проектирование персонализированных образовательных сценариев в дошкольном образовании средствами генеративного искусственного интеллекта	168
Пак Диана Александровна	



TARBIYAVIY TADBIRLARNI SAMARALI TASHKIL ETISHDA MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI VA OTA-ONALARNING O'ZARO HAMKORLIK MASALALARI

Sanayeva Surayyo Bobonazarovna

Navoiy davlat universiteti, Maktabgacha ta'lim kafedrası professori, PhD

Jabborova Shaxina G'affor qizi

70110201 – Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
(maktabgacha ta'lim) mutaxassisligi 1-bosqich magistranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlari va ota-onalar o'rtasidagi samarali hamkorlik asosida tarbiyaviy tadbirlarni tashkil etish masalalari tahlil qilingan. Tadqiqot jarayonida tarbiyaviy tadbirlarning asosiy turlari, ularning pedagogik mezonlari hamda ota-onalarni tarbiyaviy jarayonga jalb etish strategiyalari o'rganilgan. Shuningdek, ota-ona va pedagoglar o'rtasidagi hamkorlikning bolalarning shaxsiy, ijtimoiy va intellektual rivojlanishiga ta'siri yoritilgan. Maqolada hamkorlik jarayonida yuzaga keladigan muammolar va to'siqlar aniqlanib, ularni bartaraf etish bo'yicha ilmiy-amaliy xulosalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lim, tarbiyaviy tadbir, ota-ona va pedagog hamkorligi, samarali hamkorlik, bolalarning ijtimoiy rivojlanishi, interaktiv pedagogika, raqamli ta'lim platformalari.

Abstract: This article examines the issues of organizing educational activities based on effective cooperation between preschool educational institutions and parents. The study analyzes the main types of educational activities, their pedagogical criteria, and strategies for involving parents in the educational process. In addition, the impact of parent-teacher cooperation on children's personal, social, and intellectual development is highlighted. The article also identifies the main challenges and barriers arising in the cooperation process and proposes scientific and practical recommendations for overcoming them.

Key words: preschool education, educational activities, parent-teacher cooperation, effective collaboration, children's social development, interactive pedagogy, digital learning platforms.

Аннотация: В данной статье рассматриваются вопросы организации воспитательных мероприятий на основе эффективного сотрудничества дошкольной образовательной организации и родителей. В ходе исследования проанализированы основные виды воспитательных мероприятий, их педагогические критерии, а также стратегии вовлечения родителей в воспитательный процесс. Кроме того, освещено влияние сотрудничества родителей и педагогов на личностное, социальное и интеллектуальное развитие детей. В статье также выявлены основные проблемы и барьеры, возникающие в процессе взаимодействия, и предложены научно-практические рекомендации по их преодолению.

Ключевые слова: дошкольное образование, воспитательное мероприятие, сотрудничество родителей и педагогов, эффективное взаимодействие, социальное развитие детей, интерактивная педагогика, цифровые образовательные платформы.

KIRISH

Maktabgacha ta'lim bosqichi bolaning shaxsiyati, ijtimoiy ko'nikmalari va intellektual salohiyatini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega bo'lib, tarbiyaviy tadbirlar orqali bolalarda ijtimoiy, axloqiy va madaniy qadriyatlarini rivojlantirish imkonini beradi. Bugungi kunda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyaviy tadbirlarni faqat pedagog tashabbusi bilan emas, balki ota-onalar bilan uzviy hamkorlikda olib borish zarurati ortib bormoqda.

Ota-ona va maktabgacha ta'lim tashkiloti o'rtasidagi samarali hamkorlik bolalarning rivojlanishini qo'llab-quvvatlash, ularning qiziqish va ehtiyojlariga mos tarbiyaviy muhit yaratishda hal qiluvchi rol o'ynaydi ^[4].



Shu bois, tarbiyaviy jarayonning samaradorligi nafaqat pedagogik yondashuvga, balki oilaviy ta'lim resurslaridan samarali foydalanishga ham bog'liq holda ta'minlanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Hamkorlik – bu maktabgacha ta'lim tashkiloti va ota-onalar o'rtasida tarbiyaviy jarayonni muvofiqlashtirish hamda qo'shma faoliyatni tashkil etish demakdir.


Pedagoglar va ota-onalar o'rtasidagi uzviy aloqa bolaga individual yondashuvni shakllantirish, uning qobiliyatlarini aniqlash va rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi ^[6].

Pedagogik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ota-onalar faol ishtirok etgan holda o'tkazilgan tarbiyaviy tadbirlar bolalarning ijtimoiy ko'nikmalarini, kommunikativ hamda kreativ salohiyatini sezilarli darajada oshiradi. Shu bilan birga, ota-onalarning pedagogik jarayonga jalb qilinishi ularning tarbiyaga bo'lgan mas'uliyatini kuchaytiradi va maktabgacha ta'lim tashkiloti faoliyatining samaradorligini mustahkamlaydi.

Tarbiyaviy tadbir – bu bolaning shaxsiyati, axloqiy, ijtimoiy va intellektual qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan maqsadli hamda rejalashtirilgan faoliyatdir. Pedagogik adabiyotlarda tarbiyaviy tadbirlar ko'pincha bolalar faoliyati, muhit va maqsadga qarab tavsiflanadi. Ular bolaning yoshiga, qiziqishlariga va rivojlanish darajasiga mos tarzda tashkil etiladi ^[2]. Shu bilan birga, tadbirlar mazmuni, shakli va pedagogik metodlari bo'yicha ham farqlanadi, bu esa ularni turli kategoriyalarga ajratish imkonini beradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ma'lumki, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyaviy tadbirlar turlarga ajratilib, ularga quyidagilar kiradi (1-rasm):



1-rasm: Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyaviy tadbirlarning asosiy turlari

1. **Rasmiy (strukturaviy) tadbirlar.** Bu turdagi tadbirlar oldindan rejalashtirilgan bo'lib, pedagog tomonidan tizimli tarzda olib boriladi. Masalan, bayram tadbirlari, mavzuga oid mashg'ulotlar, viktorinalar, ko'rgazmalar. Rasmiy tadbirlar pedagogga jarayonni nazorat qilish, bolaning faolligini baholash va natijalarni o'lchash imkonini beradi.
2. **Norasmiy (erkin) tadbirlar.** Norasmiy tadbirlar bolaning tashabbusi, qiziqishi va ijtimoiy interaksiyaga asoslangan bo'lib, ular o'yinga, rolli faoliyatga yoki guruh muhokamasiga yo'naltiriladi. Bu tadbirlar orqali bola mustaqil qaror qabul qilish, muammolarni hal qilish hamda jamoadagi o'zaro aloqalarni rivojlantiradi.
3. **Individual tadbirlar.** Individual tadbirlar bolaning shaxsiy ehtiyojlari va qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan. Masalan, rassomchilik mashg'ulotlari, she'riyat, musiqiy ijod yoki individual loyiha ishlari.
4. **Guruhli (kollektiv) tadbirlar.** Bu tadbirlar guruhdagi bolalar o'rtasida ijtimoiy muloqot, hamkorlik va kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan. Masalan, bayram tadbirlari, teatr sahnalashtirish, ekologik aksiyalar.
5. **Integratsiyalashgan tadbirlar.** Zamonaviy pedagogik yondashuvda tarbiyaviy tadbirlar ko'pincha bir nechta yo'nalishlarni birlashtirgan holda o'tkaziladi. Masalan, ekologik-madaniy tadbirlar, texnologik va interaktiv o'yinlar orqali amalga oshiriladigan mashg'ulotlar.

Ushbu tasnif pedagoglarga tarbiyaviy tadbirlarni rejalashtirishda hamda ularni bolalarning ehtiyojlari va yosh xususiyatlariga moslashtirishda qulaylik yaratadi. Shu bilan birga, tadbirlarning turli shakllari ota-onalarni ham jalb etishga imkon beradi va maktabgacha ta'lim tashkiloti bilan hamkorlikni samarali tashkil etadi.

Ota-ona va maktabgacha ta'lim tashkilotlari o'rtasidagi hamkorlik – bu bolaning ijtimoiy, axloqiy va intellektual rivojlanishini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan uzviy pedagogik jarayondir.




Hamkorlikning pedagogik asoslari quyidagilardan iborat:

1. **Uzviy aloqa va informatsion almashuv** – pedagoglar va ota-onalar o'rtasida muntazam ma'lumot almashish bolalarning individual xususiyatlarini tushunishga yordam beradi. Bu, o'z navbatida, tarbiyaviy tadbirlarni bolalarning qiziqishlari va ehtiyojlariga moslashtirish imkonini yaratadi.
2. **Qaror qabul qilish va tashabbuslarni birlashtirish** – ota-onalar va pedagoglar tarbiyaviy tadbirlarni rejalashtirish hamda amalga oshirishda hamkorlik qilganda, bolaning rivojlanish jarayoni muvofiqlashadi va samaradorlik oshadi.
3. **Ijtimoiy va axloqiy qo'llab-quvvatlash** – hamkorlik bolaning ijtimoiy ko'nikmalarini shakllantirish, jamoadagi o'zaro munosabatlarni rivojlantirish hamda oilaviy tarbiyaviy qadriyatlarni mustahkamlashga xizmat qiladi.
4. **Faol pedagogik hamkorlik modeli** – zamonaviy pedagogik yondashuvlar ota-onalarni passiv kuzatuvchidan faol ishtirokchiga aylantirishga qaratilgan. Masalan, ota-onalar bilan maslahatlashuvlar, guruh tadbirlarida ishtirok etish, interaktiv platformalarda birgalikdagi faoliyat ^[2].

Shunday qilib, ota-ona va maktabgacha ta'lim tashkiloti hamkorligi tarbiyaviy jarayon samaradorligini oshirish, bolaning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlash hamda tarbiyaviy tadbirlarni individual xususiyatlarga moslashtirishda asosiy pedagogik mexanizm hisoblanadi.

Tarbiyaviy tadbirlarni samarali tashkil etish uchun bir nechta mezonlar mavjud. Ular pedagoglarga tadbirni rejalashtirish, amalga oshirish hamda natijalarni baholash imkonini beradi (2-rasm):



2-rasm: Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyaviy tadbirlarni samarali tashkil etish mezonlari

1. **Ma'lum bir pedagogik maqsadga muvofiqlik** – tadbir bolaning yoshiga, qiziqishlariga va rivojlanish darajasiga mos bo'lishi kerak.
2. **Tashkiliy va metodik tayyorgarlik** – pedagog tadbir mazmuni, shakli va metodlarini oldindan rejalashtirishi, kerakli material va resurslarni tayyorlashi zarur.
3. **Faollik va ishtirok darajasi** – tadbir davomida bolalar faol ishtirok etishi, o'z fikrini ifoda etishi hamda jamoaviy faoliyatda qatnashishi muhim.
4. **Moslashuvchanlik va kreativlik** – tadbir jarayonida pedagog bolalarning qiziqishi va holatiga qarab o'zgarishlar kiritishi mumkin; interaktiv va o'yin elementlari bilan boyitish samarali natija beradi.
5. **Hamkorlik va ota-onalarni jalb qilish** – tadbir ota-onalarni faol ishtirok etishga, maslahatlashuv va qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan bo'lishi lozim.
6. **Natijani baholash mezonlari** – samarali tadbirlar bolalarning ijtimoiy, axloqiy va kreativ ko'nikmalaridagi o'zgarishlar orqali baholanadi; shuningdek, ota-onalar va pedagoglarning fikri ham inobatga olinadi ^[1].

Ushbu mezonlar pedagoglarga tarbiyaviy tadbirlarni rejalashtirish va amalga oshirishda samaradorlikni oshirish imkonini beradi, shuningdek, maktabgacha ta'lim tashkiloti va ota-onalar hamkorligini yanada mustahkamlaydi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari va ota-onalar o'rtasidagi hamkorlik samaradorligi ko'plab pedagogik va tashkiliy omillarga bog'liq. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, samarali hamkorlikni to'sib qo'yadigan asosiy muammolar quyidagilardan iborat.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari va ota-onalar o'rtasidagi kommunikatsiya ko'pincha yetarlicha samarali emas. Pedagoglar va ota-onalar o'rtasidagi uzviy aloqa yetishmasligi, noto'g'ri ma'lumot almashinuvi yoki kommunikatsiya vositalarining cheklanganligi tarbiyaviy jarayon sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Masalan, ba'zi ota-onalar pedagogik maslahat va bildirishnomalarni e'tiborsiz qoldiradi yoki tadbirlar haqida yetarli axborotga ega bo'lmaydi. Shu bilan birga, pedagoglarning ham kommunikatsiya usullari bir xil bo'lmisligi yoki faqat rasmiy bildirishnomalarga tayanishi ham muammoni kuchaytiradi.

Ota-onalarning tarbiyaviy tadbirlarda faol ishtirok etmasligi ularning motivatsiyasi yetishmasligi bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Ko'p hollarda ota-onalar ish bandligi, shaxsiy muammolar yoki pedagogik jarayonga qiziqish yetishmasligi sababli tadbirlarda faol qatnashmaydi.

Bundan tashqari, ota-onalar faol ishtirok etishining samaradorligi pedagoglar tomonidan rag'batlantirish mexanizmlarining yetarli darajada ishlab chiqilmaganligi bilan ham bog'liq. Shu bois, bolalar rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatadigan hamkorlik mexanizmlarini joriy etish muhim hisoblanadi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari va ota-onalar o'rtasidagi hamkorlikni samarali tashkil etish tarbiyaviy jarayon natijadorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, samarali hamkorlikni ta'minlash bir nechta asosiy yo'llar orqali amalga oshiriladi.

Ota-onalarni tarbiyaviy tadbirlarga jalb qilishning samarali strategiyalari quyidagilardan iborat:

1. **Maslahat va treninglar orqali pedagogik bilimlarni oshirish** – ota-onalarga bolalarni rivojlantirish metodikasi bo'yicha seminarlar, onlayn treninglar va amaliy mashg'ulotlar tashkil etish.
2. **Faol ishtirokni rag'batlantirish** – ota-onalarni guruh tadbirlarida, bayram va loyiha ishlarida ishtirok etishga undash, ularni faol qatnashish uchun rag'batlantirish mexanizmlarini joriy etish.
3. **Individual konsultatsiyalar va maslahatlashuvlar** – pedagoglar va ota-onalar o'rtasida muntazam individual uchrashuvlar va maslahatlar orqali bolaning rivojlanish jarayonini muvofiqlashtirish.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti pedagoglari tarbiyaviy tadbirlarni samarali tashkil etish uchun quyidagi mexanizmlardan foydalanadi:

1. **Oldindan rejalashtirish** – tadbir mazmuni, shakli va pedagogik metodlarni aniqlash; bolalar yoshiga va qiziqishlariga moslashtirish.
2. **Resurslarni tayyorlash** – zarur materiallar, o'yin va interaktiv vositalarni oldindan tayyorlash; ota-onalarni tadbirga jalb qilish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish.
3. **Jarayonni monitoring qilish va baholash** – tadbir davomida bolalar faolligi, ota-onalar ishtiroki hamda pedagogik natijalarni baholash, keyingi tadbirlarni takomillashtirish ^[5].

Hamkorlikni rivojlantirish bo'yicha tavsiyalar:

1. **Hamkorlikni tizimli tarzda tashkil etish** – ota-onalar va pedagoglar o'rtasidagi muntazam uchrashuvlar, maslahatlar hamda interaktiv tadbirlarni rejalashtirish.
2. **Motivatsiyani oshirish** – ota-onalarni faol ishtirok etishga rag'batlantirish, ularning pedagogik bilimlarini oshirish va ijobiy tajribalarni qo'llab-quvvatlash.
3. **Raqamli vositalardan keng foydalanish** – onlayn platformalar va interaktiv texnologiyalar yordamida hamkorlikni qulay va samarali tashkil etish.
4. **Tadbirlarning individual va guruh xarakterini uyg'unlashtirish** – bolalarning shaxsiy qobiliyatlari va guruhdagi ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirishni ta'minlash.

Ushbu yo'llar maktabgacha ta'lim tashkiloti va ota-onalar o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytiradi, tarbiyaviy tadbirlarni samarali tashkil etishga imkon beradi hamda bolalarning ijtimoiy-psixologik rivojlanishini rag'batlantiradi.



XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, tarbiyaviy jarayon samaradorligi nafaqat pedagoglarning malakasi va metodik yondashuviga, balki ota-onalar bilan uzviy hamkorlikni yo'lga qo'yishga ham bevosita bog'liq. Ushbu hamkorlik bolaning shaxsiy, ijtimoiy va intellektual rivojlanishini qo'llab-quvvatlash, tarbiyaviy tadbirlarni individual xususiyatlarga moslashtirish hamda pedagogik jarayon sifatini oshirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Tadbirlarni samarali tashkil etish pedagog va ota-ona o'rtasidagi muntazam aloqa, qaror qabul qilishdagi hamkorlik, ijtimoiy va axloqiy qo'llab-quvvatlash, shuningdek, interaktiv va raqamli pedagogik vositalardan foydalanishga asoslanadi. Shu bilan birga, ota-onalarning faol ishtiroki nafaqat bolalarning kommunikativ va kreativ ko'nikmalarini rivojlantiradi, balki ularning pedagogik mas'uliyatini kuchaytiradi hamda maktabgacha ta'lim tashkilotining umumiy samaradorligini mustahkamlaydi.

Shunday qilib, tarbiyaviy jarayonning sifatli va samarali bo'lishi pedagogik yondashuv bilan birga ota-ona va maktabgacha ta'lim tashkiloti o'rtasidagi faol, uzviy hamda tizimli hamkorlikni tashkil etishga bevosita bog'liq ekanligi aniqlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Akbarov S. Maktabgacha ta'lim muassasalarida tarbiyaviy tadbirlarni tashkil etish metodikasi. – Toshkent: Ma'rifat, 2019.
2. Islomova D. Ota-ona va pedagog hamkorligi // Pedagogik ilmiy jurnal. – 2020. – 3(12). – 45–52-b.
3. Karimov A. Tarbiya jarayonida ota-onalar ishtirokining samaradorligi // Maktabgacha ta'lim pedagogikasi. – 2021. – 1(15). – 10–18-b.
4. Rakhimova M. Hamkorlik pedagogikasi: nazariya va amaliyot. – Toshkent: Ilm Ziyo, 2022.
5. Shokirova N. Integratsiyalashgan tarbiyaviy tadbirlar va ularning samaradorligi. – Toshkent: Fan, 2021.
6. Tolibova F. Bolalarda ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirishda ota-onalar roli // Xalq ta'limi jurnali. – 2020. – 2(7). – 23–30-b.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №3(2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.